

**TIL VA JAMIYAT. SOTSIOLINGVISTIKA**

Ashuraliyeva Latofat Farxod qizi

*Termiz iqtisodiyot va servis unversteti Filologiya va tillarni o'qitish
(o'zbek tili)*

Anotatsiya: Ushbu maqolada satsiolingvistika va til satsologiyasi haqida ma'lumotlar hamda ushbu sohalarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari, tilning jamiyati tarixi bilan bog'liqligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Sotsiolingvistika, Differansiatsiya, Integratsiya, Ijtimoiy muhiti, Obyekti, Predmeti

Til va jamiyatning o'zaro uzviy munosabatini sotsiolingvistika fani o'rganadi. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi insoniyat jamiyati bilan mustahkam bog'liqdir. Til insoniyat tarixiga qadar qadimiy til deb hisoblanib kelmoqda.

Umumiy til tushunchasining, shevalaridan farqlanadi. Til butun bir xalqqa xizmat qiladi, sheva esa xalqning bir guruhi sifatida qaralgan. Til ko'p vazfali hamma uchun umumiy bo'lgan aloqa-munosabat vositasiga aylangan. Sheva esa, vazifa nuqtai nazaridan chegaralangan bo'lib tilning nutqiy ko'rinishini tashkil qiladi.

Masalan, o'zbek tiliga qarluq-chigil-uyg'ur dialekt tilda asos bo'lgan. Bu sheva Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Buxoro shevalarini o'z ichiga olgan. O'zbek tili dialektli til hisoblanadi. Bunda, o'zbek tilining o'ziga xos murakkab tarixiy rivojlanish sharoiti va o'zbek millatining o'tmishdagi xilma-xil etnik tarkibi bilan izohlanib kelgan.

Til jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanadi, tilning gramatikasi takomillashib boradi. Til taraqqiyot jamiyat bilan birga takomillashib boradi. Masalan kishilik tarixidan shu narsa ma'lumki, avval urug'dosh til, kegin qabila tili, elat, xalq va millat tili shakllangan.

Dialektlar sonining ko'payishi va ular asosida yangi-yangi tilning vujudga kelishi til taraqqiyotining differansiatsiya jarayonini tashkil qiladi. Differansiatsiya tillarning dialektlarga parchalanishi deb yuritiladi.



Har bir millat o'z adabiy tilining mustahkamlanishi uchun harakat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining keying bosqichlarida dialektlar kamayib, adabiy tilga yaqinlashib borishi kuzatilgan. Buni adabiy til ta'sirini kengayishiga olib keladi. Til taraqqiyotdagi bu jarayon integratsiya deb nomlangan. Integratsiya bir tilga mansub shevalarning adabiy til me'yorlariga yaqinlashuvi deyiladi. Bunday jarayonlar tasodifan yuz bermaydi, balki jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy hayotning taraqqiyot jarayonlariga bog'liq tarzda sodir bo'ladi deb aytoliyman.

Til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni, tilning falsafa, ijtimoiy psixologiya, etnografiya bilan bog'liq jihatlarni o'rganuvchi soha sotsiolingvistika (ijtimoiy tilshunoslik)dir.

Sotsiolingvistika quyidagicha ta'riflanadi.

1. Jamiyat va til o'zaro bog'liq, mutunosib tarixiy jarayon hodisasidir.
2. Jamiyat taraqqiy yeta borgan sari tilning ijtimoiy vazifalari ham takomillashib boradi.
3. Adabiy tilning, shevalarning lug'at boyligi kengayib, ortib boradi.
4. Yashash muhiti yaqin, turmush tarzi o'xshash hamda o'zaro iqtisodiy munosabatlar shakllangan xalqning tillari bir-biriga ta'sir korsatadi.

Dunyo tilarning ma'lum manoda, o'ziga xosligini yorituvchi, muayyan tilning boshqa tillardan farqliy jihatlari ko'rsatuvchi tadqiqotlar yaratilgan. Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini tahlil qiluvchi asosiy hisoblanadi. Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini yoritishda tarixiylik, hayotiylik, me'yoriylik, hududiylik kabi mezonlarga bo'linadi.

Til voqealik sifatida mavjud bo'lish uchun muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichini o'tash kerak bo'ladi. Tilning paydo bo'lishi, yaxlit tizim tarzida shakllanishi, ijtimoiy hodisa sifatida mavjudligi tarixiylik bilan bog'liq boladi.

Tilning hayotiylik uning aloqa munosabat vositasi sifatida qaraladi. Til hayotligini yoqotsa, o'lik tilga aylanadi.

Sotsiolingvistika til va jamiyat munosabatlarini tahlil qilar ekan, umumiy va xususiy qonuniyatlariga tayanadi.



Til jamiyatning aloqa-aralashuv quroli sifatida jamiyat bilan uzviy aloqadadir. Chunki jamiyatda ro'y har bir o'zgarish shu jamiyatning tilida o'zining ma'lum izini qoldiradi. Shuning uchun ham jamiyat tarixining muayyan jihatlarini yoritishda tarixiy hujjatlar, yozma yodgorliklar ojizlik qilib qolgan joyda lingvistik materiallar yordamga kelishi mumkin. Til ijtimoiy xarakterga ega, chunki u jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladi. Til faqat jamiyatda, odamlar orasida mavjud bo'ladigan ijtimoiy quroldir. Tilning taqdiri, uning yashashi, rivojlanishi faqat shu tilda gaplashuvchi jamiyatga bog'liq. Sotsiolingvistika jamiyatdagi ijtimoiy sharoitlarda til faoliyat olib boradigan va rivojlanadigan jabhalarni o'rganadi. Ijtimoiy sharoitlarga jamiyatdagi odamlarning ijtimoiy kelib chiqishi, tuzilishi, yoshi, ijtimoiy mavqe, madaniyat va ta'limni bilish darajasi, yashash joyi va so'zlayotgan nutqi misol bo'la oladi. Xususan, ushbu fan tadqiqotchisi so'zlovchilar o'z nutqida u yoki bu variantni qanchalik ko'p ishlatishini va bu qanday ijtimoiy parametrlarga (ijtimoiy sinf, ma'lumot, jins, yosh, aloqa holati) bog'liqligini aniqlashi kerak. Ijtimoiy tilshunoslik, bizning fikrimizcha, til va uning ijtimoiy hamda madaniy kontekstlaridagi munosabatlarida vujudga keladigan masalalarni o'rganadigan fandır. Buning uchun u ma'lum bir jamiyat a'zolarining turli xil kodlar va iboralar almashinuvini hamda og'zaki nutqda qanday suhbatlashishlarini analiz qilib, ushbu real vaziyatlarni o'rganadi. Sotsiolingvistika, ya'ni ijtimoiy tilshunoslikning boshqa fanlardan farqli jihatları va o'ziga xos xususiyatlarini anglash uchun ushbu fanning kelib chiqishi, obyekti, predmeti va olimlarning bu fan to'g'risidagi turli xil qarashlarini ko'rib chiqishimiz kerak.

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizov O. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent 1996
2. Abdulazizov A.A. Tilshunoslikka kirish. toshkent 1999
3. акшина А.А. Пособие по курсу <<Введение в языкознание>>-М 1969.
- Амирова Т.А. Ольховиков Б.А. . Очерки по истории лингвистики 1975.
4. Баскаков Н.А Содиқов. А.С.. Умумий тилшунослик.- Тошкент 1979.
5. Баранникова.Л.И. Введение в языкознание .-М.1973.